

“BIR BURDA NON” HIKOYASIDA OCHKO‘ZLIK MOTIVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530111>

Usmanova Irodaxon Zohidjon qizi

Ziyaudinova Gulnoza Iqboljon qizi

ADPI asisstant o‘qituvchisi ,

Andijon davlat pedagogika instituti, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich(

*sirtqi) talabasi **Iroda Usmonova***

irodausman25@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘chqor Norqobilning “Bir burda non” hikoyasi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada asarning bosh g‘oyasi yoritib beriladi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о рассказе Кочкора Норкабила «Бир бурда нон». Основная идея работы раскрыта в статье.

Abstract

This article talks about the story "Bir burda non" by Kochkor Norqabil. The main idea of the work is explained in the article.

Kalit so‘zlar

obraz, motiv, so‘ngso‘z ,urush, ochko‘zlik, zog‘ora non, tandir, bir burda non.

Shoir, yozuvchi, dramaturg O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qo‘chqor Norqobil ijodi adabiyotshunoslar uchun ma‘lum va mashhur. Shu o‘rinda yozuvchining qalamiga mansub “Bir burda non...” hikoyasi haqida yozishni joiz deb bildik. Asar yozilishidan aslida maqsad nima edi? Urush daxshatlari, voqealari yoritilgan o‘nlab, yuzlab, balki minglab asarlar mavjud. “Asarda urush daxshatlari yoritilmagan-ku... nega bunday dedi?”, – deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz ajab emas, Asarda urush daxshatlari yoritilmasa-da, shu kichik bir hikoyani bir emas, bir necha bor mutolaa qilish orqali aslida “bir burda non” bilan qorni to‘ysa ham ochko‘zlik bilan bir-birini g‘ajigan, urush qilgan odamzotning va o‘sha davr urush sababchilarining asl kirdikorlari yuzaga balqib chiqqandek go‘yo. Demak asar haqida bizning fikrlarimiz bunday...

Bugun juda ko‘p tanqidiy tahliliy yillarda nazm va nasr faol. Biz asl ma‘nosini ochishga bel bog‘lagan hikoyamiz ham chuqur ma‘noli asardir. Asar boshlanishida

umrining so'nggi kunlarini yashayotgan urush qatnashchisi bo'lgan generalning o'g'li bilan suhbatini manzarasini ko'ramiz. O'g'lining:

–Ota, Sen hali ko'p yashaysan. Bu nima deganing. Tobing qochdi, xolos.²⁹

...deya kuyunishlarini o'qigan zahoti general o'lim to'shagida yotganini anglash qiyin emas. Otasi tuzalishi uchun butun Voronejni ostin-ustun qilishga, Rossiyani oyoqqa turg'izishga, anqoning urug'i qo'shilgan dori-darmonlarni topib kelishga, agar u xohlasa, o'sha zahoti otasini chet elga olib borib davolatishga tayyor bo'lgan o'g'lining xitoblariga birgina o'zbek tandirida qip-qizarib, singib, qotib pishgan zog'ora non yeyishini aytgan generalning iltijoli boqishlari shu qadar jonli tasvirlanganki, bu holat beixtiyor ko'z oldimizda gavdalanadi.

–Qirq ikkinchi yili handa qda yotganimizda leytenant Sharapov yon cho'ntagidan olib beruvdi. Juda lazzatli, cheti biroz kuygan, lekin juda shirin, qotgan, qip-qizarib pishgan bir burda non. Zog'ora non.

General obrazining quyidagi ta'rifini o'qigan kishi qalbining bir chetida o'z ona yurtiga, vatani go'zalliklariga oshiq qiluvchi noma'lum hislar qurshovida qolsa, ajab emas. “ – Farg'ona degan joy bor. Tog' tagidagi qishloq. Tong chog'i quyosh qishloqqa juda yaqinlashib kelarkan. Tog'dan sharqirab tushgan Oqsoy suvi qishloqni ikkiga bo'lib oqadi. Odamlar hovli eshiklariga qulf solishmaydi. Har bir xonadonda tandir bor. Har bir uyda ertalab tandir yonadi. Har bir tandirdan oftobi non chiqadi – oftob chiqadi. Ana timqora sochini sanjir qilib o'rgan navnihol, go'zal o'zbek qizi tandirga o'tni tashlayapti. Hovlilarda, ishkamlarda savatday-savatday bo'lib uzumlar osilib yotibdi. Bog'larda mevalar g'arq...”

Binobarin, asarni o'qish chog'i muallif kim ekanligini bilmay o'qisangiz, bu asarni qaysi rus yozuvchisi yozdi ekan deb o'yg'a tolasiz, nega deysizmi? Yozuvchi Farg'ona degan joyni shunchaki o'z tilidan tasvirlamaydi, balki uni bir rus millatiga mansub insonday yoritib beradi. Hovli eshiklariga *qulf solmaydigan* odamlar yashaydigan bu joyni, har bir xonadonda erta tongdan tandirdan *oftob ko'rinishiday zog'ora nonlarning chiqishi* ham va yoki timqora sochlarini *zanjir* qilib o'rgan navnihol, go'zal o'zbek qizi tandirga *o'tni tashlashi*, bari-bari shu qadar chiroyli tasvirlanish bilan birga o'zga millat vakili tomonidan ta'riflanayotganiga bir on shubha qilmaysiz. Qo'chqor Norqobil hayotiga nazar solishda ijod yillari Rossiyada o'tganini bilgan kishiga kichik hikoya ham bejiz shuncha mahorat bilan yozilmagani oydinlashadi.

²⁹ Qo'chqor Norqobil. bu yerlarda hayot boshqacha-Toshkent G'afur G'ulom, 2018–B-250-251

Bemor generalning xayoli uloqqan chog'i hamshira uning tomiriga ukol urgan payt alahsib aytgan gaplaridan asarning asl mazmun-mohiyati biz uchun ochilganday bo'ladi.

"Bir burda nonga odamning qorni to'yadi..." Do'sti va urushdagi maslakdoshi leytenant Sharapovning gapini qayta-qayta takrorlagan general odamzot nega shuni tushunib yetmasligini o'ylab kuyunadi. "Nega odamzot bir burda nonga to'ysa ham ochko'zlik bilan bir-birini g'ajiydi. Urush qiladi, Sharapov?!", - deya nola qilgan general aslida Sharipovga emas, balki biz o'quvchiga bu daxshatni yetkazmoqchiday... "Agar buni tushunganda edi yer yuzi tinch bo'lardi, yer yuzida urush bo'lmas edi... Sen bilgan oddiy gapni bugun butun dunyo tushunishini istayman..." Mana urushning sababi nimada ekan. Ana endi bizga yozuvchi nima maqsadda bu asarni qoralagani ayon bo'ldi. Ochko'zlik nafaqat, urush yillaridagi dolzarb masala, balki hozirgi hayotimizni ham zaharlayotgan illat bo'lib qolayotgani, achinarli, albatta.

Va so'ngida Oligarxga boqqancha so'niq chehrasida tuyqus mayin tabassum bilan, yengil nafas olib xorg'in va titroqli ovozda:

-Bir burda non... Bir burda non hammamizga yetadi, - deyishi va bu uning so'nngi gapi ekanligi juda ayanchli. U o'limidan oldin o'sha o'zi istagan tandirdan qip-qizartirib yopilgan zog'ora, bir burda nonni yeyishga haqli emasmidi?

So'ngso'z o'rnida inson aql bilan ish ko'rmog'i kerak, inson insonni qadrlamog'i shart. Ustoz bizga axloq va insoniy tuyg'ulardan saboq beradi. Asardan hayotimiz uchun nimanidir olamiz, u xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin. Ochko'zlik sabab qizg'inbarotlar qilib el-yurt tinchligi buzilishiga zamon va vaziyat shuni taqazo etgani emas, aslida buning barchasiga odamzotning nafsi, ochko'zlik sababdir. Haqiqatdan ham bir burda non bilan qornimiz to'yadi-ku, ammo ko'zimiz, nafsimiz hech to'yimasligi ayni haqiqat. Bugun yoshlarga aytar so'zimiz ko'p, tinch-u osuda vatanni sevish unga fidoyi farzand bo'lish muhim. Zero vatanni sevmog' iymondandir. Asar insonga ma'naviy ozuqa bilan bir qatorda mas'uliyat, burch, tarbiya kabi hayotnoing oltin qoidalarini o'rgatish maqsadida yozilgan. Uyg'oq va mudroq qalblilarni uyg'otmog' asar maqsadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugun ertaklar uxlatish uchun emas, uyg'otish uchun aytilmog'i darkor. Ruhiyatni, ruhni tarbiyalash, chinakam insoniy tuyg'ular ildiz urib borishi uchun xizmat qilmog'i zarur. Badiiy asar esa mana shunday ruhlarga ozuqa beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Yoshlik" jurnali, 2017-yil, 4-son

2. Qo'chqor Norqobil. Urush surati (kichik hikoyalar)
3. Ziyouz.uz internet sayti
4. . Qo'chqor Norqobil.bu yerlarda hayot boshqacha-Toshkent G'afur G'ulom,2018-B-250-251